

DAVLAT HOKIMIYATI TUSHUNCHASI, KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Raximov Humoyun Otanazar o‘g‘li

Urganch davlat universiteti

“Huquq” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada davlat hokimiyati tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yoritilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *mamlakatimizda davlat hokimiyati, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining ahamiyatini ko‘rsatib berish.*

Natija: *Mamlakatning rivojlanishida davlat hokimiyati faoliyatining oqilona yo‘lga qo‘yilganligi nafaqat muhim o‘rin tutishini ochib berish.*

Kalit so‘zlar: *davlat hokimiyati, konstitutsiyaviy-huquqiy, zamonaviy, demokratik*

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb- hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatning rivojlanishida davlat hokimiyati faoliyatining oqilona yo‘lga qo‘yilganligi nafaqat muhim o‘rin tutadi, balki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, aynan davlat hokimiyatining qaysi yo‘nalishda, kimlar tomonidan va qay yo‘sinda amalga oshirilishi ko‘p jihatdan mamlakat va aholi taqdirini belgilab kelgan. Buni insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy tajribasi yaqqol tasdiqlaydi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlat hokimiyati ijtimoiy hokimiyatning asosiy turi sifatida azaldan tadqiqotchilar va siyosatchilarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Professor Z.M.Islomov ta’kidlaganidek, “Hokimiyat masalalari hech qachon siyosiy maydondan chetda bo‘lmagan va har qanday hollarda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan”. Hokimiyat masalalari bugungi kunda falsafa, siyosatshunoslik, davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq kabi bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladi. Keyingi vaqtlarda ilmiy muomalada hokimiyat haqidagi alohida fan - “kratologiya” (kratos - hokimiyat, kuch va logos - ta’limot) xususida ham so‘z yuritilmoqda. Davlat hokimiyati, umuman hokimiyatning mohiyati haqida chuqur va har tomonlama bilimlarga ega bo‘lmay turib, davlat hokimiyati tizimi, uning tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mexanizmi haqida fikr yuritish mavxum va besamar hisoblanadi. Yuridik lug‘at va adabiyotlarda hokimiyat tushunchasiga, umumiy ma’noda muayyan vositalar - nufuz, huquq, zo‘rlilik va hokazolar orqali o‘z irodasini amalga oshirish, odamlar faoliyati va yurish-turishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish qobiliyati va imkoniyatida namoyon bo‘ladigan va kamida ikki kishi o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabat turi sifatida ta’rif beriladi. Tarixdan ma’lumki, insoniyat paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab to hozirga qadar u bilan birgalikda hokimiyat u yoki bu ko‘rinishlarda umrguzaronlik qilgan. Bunda, odatda, hokimiyatni davlat hokimiyati bilan bog‘liq holda tushunish an’anasi shakllangan. Zero, o‘z taraqqiyoti jarayonida inson doimo ijtimoiy hayot talabi sifatida davlat hokimiyatining ta’sirini sezib yashagan. Hokimiyat bilan munosabatlarda odamlar ba’zan salbiy tajriba orttiradilar. Zero,

hokimiyatning bo‘ysundirishdan iborat bo‘lgan xususiyati insoniyat uchun eng qimmatli bo‘lgan ne‘mat - erkinlik bilan qarama-qarshi turadi. Balki shu sababli ham ijtimoiy ongda hokimiyatga nisbatan ko‘pam ijobiy munosabat bildiraverilmaydi. Mazkur fikrning tasdig‘i sifatida bir qator iboralarni keltirish mumkin. Xususan, ingliz mutafakkiri lord Ektonga ko‘ra, “hokimiyat - bu yovuzlik, mutlaq hokimiyat esa - mutlaq yovuzlikdir”. M.A.Bakuninning ta‘kidlashicha, “hokimiyat doimo axloqqa xilofdir.” Ayni paytda, bunday yondashuvlar hokimiyatning ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda tartibsizlik va anarxiyadan saqlashning muhim omili sifatidagi o‘rnini inkor eta olmaydi. Bu borada R.Aron shunday fikrni bildirgan:



“Har qanday hokimiyat hokimiyatsizlikdan ko‘ra afzalrovdur”. Ushbu ta‘kidlar orqali hokimiyatning muhim ikki yoqlama (dual) xususiyati namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, hokimiyat bir vaqtning o‘zida ham erkinlikni ta‘minlovchi ham uni cheklovchi vazifalarni bajaradi. Shuni qayd etish kerakki, hokimiyat munosabatlari obyektiv ravishda ijtimoiy hayotga xosdir. Hokimiyat jamoa sifatida hayot kechirishning muhim talabi bo‘lib, busiz jamiyatni tasavvur qilish qiyin. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyatsiz inson sivilizatsiyasi mavjud bo‘lolmaydi. O‘z navbatida shark olimlari va mutafakkirlari asarlarida asosan odil hokimiyat bilan bog‘liq nazariyalar va qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, bu esa Sharqda hokimiyat tushunchasini tushunishda o‘zgacha yondashuv mavjudligidan kelib chiqadi. Darhaqiqat, zamonaviy demokratik davlatlarda hokimiyat faqatgina bir toifaning ikkinchi toifa ustidan hukmronlik qilishi sifatida emas, balki xalq manfaatlarini yo‘lida xizmat qiluvchi tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Kishilar jamoasi - jamiyat bor ekan, o‘sha yerda hokimiyat ham bo‘ladi.

Har qanday jamiyatda insonlar alohida emas, balki birgalikda turmush kechirishgan va bunda o‘zaro munosabat hayotning o‘ziga xos talabiga aylangan. Shuning uchun V.Y.Lyubashisga ko‘ra, hokimiyatning kelib chiqish sabablarini jamiyatdan, kishilarning o‘zaro jamoa bo‘lib yashash ehtiyojidan izlash lozim. Bunday fikrni G.M.Tansikbayeva ham yoqlaydi: “Hokimiyat - ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq tushunchadir. Hokimiyat ijtimoiy munosabatlar orqali, ya‘ni o‘z hatti-harakatlarini ongli ravishda anglovchi odamlar o‘rtasida amal qiladi”. Antik davr mutafakkiri Aristotel hokimiyatni, eng avvalo, a‘zolari umumiy irodaga bo‘ysunishga asoslanadigan kishilar jamoasini

(jamiyatni) tashkil etish, uning yaxlitligi va birligini ta‘minlash uchun zarur deb hisoblagan. Bunda umumiy irodaga bo‘ysunish motivi turlicha bo‘lishi mumkin: yagona maqsadga erishish ehtiyoji; buyruqlarni bajarish zarurligini anglash; hukmdorning nufuzi; bo‘ysunmaslik oqibatida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlardan qo‘rqish va hokazo. Hokimiyatning barqarorligi va mustahkamligi ana shu motivlarga bog‘liq. Bizningcha, jamiyat a‘zolari o‘rtasida hokimiyatning zaruratini ongli ravishda tushunadiganlar qancha ko‘p bo‘lsa, hokimiyat shuncha barqaror va mustahkam bo‘ladi. Shu bilan birga kuchli hokimiyat ya‘ni, har qanday vaziyatda ham hokimiyatning boshqa tarmoqlari tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining so‘zsiz ijro etilishi bevosita hokimiyatning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy hayot eng oddiy, insonlarning o‘zaro manfaatlari bir-biriga ancha mos keladigan ibtidoiy shakllardan tobora murakkab, rang-barang xususiyatlarni kasb etib, ortib borayotgan ehtiyojlar asosida inson faoliyatining yangi yo‘nalishlari yuzaga keladi. Insonlar tabaqalar, turli ijtimoiy birliklar, guruhlar ajralib ular o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashadi. Natijada kishilar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy manfaatlar nafaqat bir-biriga mos keladi, balki o‘zaro kesishib, bir-biriga qarama-qarshi ham bo‘ladi. Bunday sharoitlarda butun jamiyat miqyosida ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, ularni umumiy maqsad ostida birlashtirish vazifasini xususiy manfaatlarni ifodalovchi alohida shaxs, oila yoki ijtimoiy guruh bajara olmaydi. Shu bois, jamiyatning birligini, undagi manfaatlar mushtarakligini ta‘minlash, turli xil ijtimoiy to‘qnashuvlarni oldini olish hamda bartaraf etish maqsadida davlat hokimiyati shakllangan. Bu o‘rinda huquqshunos olim Z.M.Islomov haqli ravishda ta‘kidlab o‘tganidek, davlat hokimiyati, eng avvalo, umumiy masalalar - tashqi dushmanlardan muhofaza qilish; jamoat ishlarini ta‘minlash, yashash uchun shart-sharoit yaratish ehtiyojini hal etish maqsadida vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat hokimiyati ijtimoiy jihatdan differensiallashgan (tabaqalashgan) jamiyat sharoitida yuzaga kelgan. Davlat hokimiyatining ijtimoiy hokimiyatning boshqa turlaridan (oilalar, ijtimoiy guruhlar va boshqalar) farqi shundaki, u alohida shaxs yoki ijtimoiy guruhning emas, balki butun jamiyat manfaatlarini jamlaydi va ifodalaydi. Davlat hokimiyati jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar boshqaruvini ta‘minlaydi.

Xullas, mamlakatimiz Konstitutsiyasida davlat hokimiyatini tashkil etishga oid belgilangan normalar davlat hokimiyatining demokratik tabiatini, uning xalq hokimiyati g‘oyasiga, davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipiga asoslanishi, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, jamiyat a‘zolarining qonun oldida tengligi hamda adolatni ta‘minlashga xizmat qilishini mustahkamlab qo‘ygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. «Xalq so‘zi» gazetasining 2016-yil 15-sentyabrdagi (6617)-soni.
2. Xusainov U, Fozilov A “Hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik muammolari”. T, 2014-yil, 142-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi» Farmoni Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.